

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami 19 157,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	19 157,0	117,5
shaharlar:		
Farg'ona shahri	3276,6	111,1
Qo'qon shahri	1075,1	114,5
Quvasoy shahri	439,5	129,2
Marg'ilon shahri	1793,1	118,8

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
davomi		
tumanlar:		
Oltiariq tumani	566,8	117,2
Qo'shtepa tumani	748,7	124,7
Bag'dod tumani	418,8	116,5
Buvayda tumani	491,4	124,3
Beshariq tumani	469,0	142,2
Quva tumani	502,0	122,5
Uchko'priq tumani	518,2	121,8
Rishton tumani	232,6	135,9
So'x tumani	224,4	150,6
Toshloq tumani	646,8	110,2
O'zbekiston tumani	622,5	245,2
Farg'ona tumani	667,3	106,0
Dang'ara tumani	490,9	108,9
Furqat tumani	230,3	126,4
Yozyovon tumani	364,3	116,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 783,4	1 283,4	163,3
<i>o'sish sur'ati, %</i>	97,8	70,3	69,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	5 845,8	2 574,5	1 022,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	121,1	53,3	125,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	6 454,6	29,4	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	114,2	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 203,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga kamayib, 16,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,3 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ni tashkil etgan holda 9 442,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 33,8 % ni yoki 6 484,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi.

**Korxona turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	3 230,1	9 442,9	6 484,0	111,9	122,5	113,7
shaharlar:						
Farg'ona shahri	513,0	2492,6	271,1	150,5	106,1	104,9
Qo'qon shahri	163,4	599,8	311,9	91,7	119,5	120,5
Quvasoy shahri	14,9	330,8	93,9	21,0	183,8	104,7
Marg'ilon shahri	986,5	638,2	168,4	128,5	105,5	122,7
tumanlar:						
Oltiariq tumani	31,7	356,7	178,4	56,4	134,7	109,6
Qo'shtepa tumani	362,3	163,7	222,7	153,7	82,5	134,0
Bag'dod tumani	34,8	222,4	161,6	167,4	136,2	91,8
Buvayda tumani	94,7	305,4	91,3	92,1	158,1	91,5
Beshariq tumani	21,6	187,6	259,8	166,0	178,4	122,5
Quva tumani	33,2	193,5	275,2	229,7	126,8	113,2
Uchko'prik tumani	19,2	429,1	69,8	136,4	121,2	121,8
Rishton tumani	22,4	103,5	106,7	147,8	123,1	148,6
So'x tumani	40,2	154,3	29,9	391,4	140,5	102,8
Toshloq tumani	22,4	382,4	242,0	137,3	102,4	123,0
O'zbekiston tumani	18,4	524,2	79,9	169,1	287,3	131,0
Farg'ona tumani	156,6	377,5	133,2	51,5	186,8	108,1
Dang'ara tumani	39,0	374,6	77,3	21,7	174,3	139,5
Furqat tumani	17,3	105,0	108,0	230,1	116,2	128,2
Yozyovon tumani	73,8	184,7	105,7	242,8	92,4	128,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2024-yilning mos davriga nisbatan So'x tumanida 3,9 marta va Yozyovon tumanida 2,4 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 marta), Farg'ona tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 1,9 marta) va Quvasoy shahrida (1,8 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42
